

KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK NAZARIYASI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistri

Safarova Mohichehra Xonzafarovna

Email. m.safarova@dpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikning bugungi jamiyatdagi o'rni, rivojlanayotgan sohalarda qay darajada qo'llanilishi va uning tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi. Muloqot madaniyatining qaysi sohalarda faol rivojlanayotgani va o'sib borayotgani tahlil qiladi. Bugungi kun jamiyatimizda samarali muloqot olib borish va o'z fikrlarini aniq to'g'ri ifodalash, shaxsning ijtimoiy hayotidagi birlamchi qobiliyatlaridan biridir. Bu qobiliyatni takomillashtirish va uni jamiyatda to'g'ri va samarali qo'llash uchun kommunikativ kompetentlik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetentlik, uning mazmuni va tarkibi bilan, nafaqat insonning nutqiy va lingvistik malakalarini, balki shaxsning sotsial va psixologik jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Mazkur maqola kommunikativ kompetentlikning mohiyati, tarkibiy qismlari, rivojlanish sabablari va ahamiyatini ilmiy tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, muloqot, axborot, shaxs, lingvistik, qobiliyat, madaniy, psixologik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль коммуникативной компетенции в современном обществе, её использование в развивающихся областях и её структурные компоненты. Анализируется, в каких сферах культура общения активно развивается и расширяется. В современном обществе эффективное общение и способность четко и правильно выражать свои мысли являются одними из ключевых навыков социального взаимодействия. Для совершенствования этого навыка и правильного и эффективного его

применения в обществе концепция коммуникативной компетенции имеет важное значение. Коммуникативная компетенция, её содержание и структура включают не только речевые и лингвистические навыки человека, но и его социальные и психологические аспекты. Данная статья научно анализирует сущность, структурные компоненты, причины развития и значимость коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: *социальный, общение, информация, личность, лингвистический, способность, культура, психологический.*

Annotation: *This article discusses the role of communicative competence in modern society, its application in developing fields, and its structural components. It analyzes which areas are actively developing and expanding in terms of communication culture. In today's society, the ability to communicate effectively and express one's thoughts clearly and correctly is one of the primary skills in social life. To improve this ability and apply it correctly and effectively in society, the concept of communicative competence is of great importance. Communicative competence, along with its content and structure, encompasses not only a person's speech and linguistic skills but also their social and psychological aspects. This article scientifically analyzes the essence, structural components, causes of development, and significance of communicative competence.*

Keywords: *social, communication, information, personality, linguistic, ability, culture, psychological.*

KIRISH

Kommunikativ kompetentlik - bu insonning samarali muloqoti, dunyoqarashi va his-tuyg'ularini aniq va teran ifodalab beraolishi, har xil ijtimoiy va madaniy kontekstlarda moslashuvchanlik ko'rsatish qobiliyatidir. Kommunikativ kompetentlik faqatgina til bilimlari emas, balki ijtimoiy, madaniy bilimlar, strategik mulohaza yuritish va eng muhimi til orqali ta'sir ko'rsatish qobiliyati hisoblanadi. Bugungi kun ta'lim tizimida kommunikativ

kompetentlikning rivojlanishi o'qituvchilar orasida ham va boshqa kasb egalari orasida ham keng rivojlanib bormoqda. Ya'ni ta'lim va kommunikatsiya sohalarida dolzarb o'rin tutmoqda. Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikning zamonaviy ta'lim tizimida o'rni va mohiyati hamda uning ilmiy yutuqlari haqida ma'lumot beradi. Kompyuter texnologiyalari va axborot kommunikatsiyalarining jadallik bilan rivojlanishi, ta'lim metodlari va axborot almashinuvi amaliyotlarida ilg'or yondashuvlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Kommunikativ kompetentlikni yaxshi rivojlantirish, shuningdek, insonlararo muvaffaqiyatli va samarali ijtimoiy kompetentlikni o'rnatish uchun muhim bo'lgan asosiy ko'nikmalar sifatida qaraladi. qo'llanilib kelmoqda. Kommunikativ kompetentlik - bu shaxsda turli ijtimoiy holatlarda yaxshi muloqot qilish, har xil maqsadlarda tilni to'g'ri ishlatish, hamda boshqalarning fikrlarini anglash qobiliyatidir. Kompyuter texnologiyalari, globalizatsiya hamda madaniyatlararo kommunikatsiyaning intensivlashuvi tufayli, kommunikativ kompetentlik nafaqat insonning, balki jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhimdir. Kommunikativ kompetentlik tushunchasi umuman olganda insonning samarali va ijtimoiy moslashuvchan holatda suhbatlashish qobiliyatiga aytiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Kommunikativ kompetentlikning asosiy tushunchasi XX asrning oxirlarida va XXI asr boshlarida keng tarqalgan. Kommunikativ kompetentlik birinchi bo'lib psixologiya, pedagogika, lingvistika va sotsiologiya yo'nalishlarida o'rganila boshlandi. Dell Hymes (1972): Kommunikativ kompetentlikni "til va muloqot qilish qobiliyati" deb ta'riflaydi. Dell Hymes ta'kidlashicha, bu faqat grammatik qoidalarni anglash bilan cheklanmaydi, balki tilni bir nechta ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday qo'llash zarurligini ham o'z ichiga oladi. Canale va Swain (1980): Kommunikativ kompetentlikni to'rt muhim komponentga bo'lishadi: grammatik kompetentlik, sozlash kompetentligi, strategik kompetentlik hamda, diskursiv

kompetentlik. Bachman (1990): Bachmanning nazariyasida kommunikativ kompetentlik faqat til bilimlari emas, balki insonning ijtimoiy va madaniy bilimlari ham muhim o'rin egallaydi.

MDHda, jumladan, Rossiya va boshqa sobiq sovet davlatlarida kommunikativ kompetentlik yo'nalishidagi tadqiqotlar, asosiy, til o'rgatish hamda, pedagogik sohalarga qaratilgan. MDHda o'rganishning birlamchi bosqichida asosan lingvistika va pedagogika doirasida so'z yuritilgan. N. V. Galskova (1990): U "tilni o'rganishning kommunikativ metodlari"ni ishlab chiqdi va kommunikativ kompetentlikni o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muhim muloqot uchun zarur deb hisoblagan. Yu. D. Apresyan (1994): Apresyan kommunikativ kompetentlikni "til va nutqni turli vaziyatlarda to'g'ri va samarali ishlatish qobiliyati" deb ta'riflagan. MDHda bu yo'nalish til o'qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar orqali rivojlangan. Bu davlatlarda, ayniqsa, birlamchi kommunikativ metodlarni ishlab chiqish hamda, tilni o'qitishda amaliyotga tatbiq etishga muhim e'tibor qaratilgan. A. V. Vengerov (2000) o'zining "Kommunikativ kompetentlik: pedagogik va psixologik aspektlar" nomli tadqiqotida kommunikativ kompetentlikni bunday ta'riflaydi: "Kommunikativ kompetentlik shaxsning muloqotda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan til va ijtimoiy bilimlar hamda qobiliyatlar majmuasini tashkil etadi." (Vengerov, 2000). Shu bilan birga, M. V. Borysenko (2003) shunday g'oyani ilgari suradi: "Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish orqali shaxs o'zining ijtimoiy, psixologik va madaniy resurslarini samarali qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi." (Borysenko, 2003). Bu fikrlar kommunikativ kompetentlikni faqat til va nutq malakalarini rivojlantirishda emas, balki insonning ijtimoiy muloqot va hissiy intellektual qobiliyatini ham o'z ichiga olganligini aniqlaydi.

Yurtimizda kommunikativ kompetentlik yo'nalishida tadqiqotlar mustaqillikdan keyin samarali bosqichga o'tgan. O'zbekistonda ushbu

mavzuga qiziqish kuchaygan , chunki yurtimizda ta'lim sohasidagi yangilanishlar hamda yangi metodologiyalarni joriy etish zarurati paydo bo'lgan. R. Sh. Ibragimov (2007): O'zbekistonda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar boshlang'ich bosqichida bo'lib, ayniqsa, pedagoglarni kommunikativ kompetentlikka o'rgatishga e'tibor qaratilgan. Ibragimovning tadqiqotlari til o'qitishda amaliy yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlagan. M. S. Murodov (2012): Murodov o'z ishlarida kommunikativ kompetentlikni tilni o'rgatishda innovatsion yondashuvlar bilan bog'lab, talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini o'stirishning yaxshi usullarini taklif etgan. N. T. Xodjaeva (2015): Yurtimizda kommunikativ kompetentlikni o'rgatishda modern pedagogik texnologiyalarni yo'lga qo'yish, talabalarning tilni o'zlashtirish davrida to'liq va samarali suhbat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga muhim e'tibor berilgan.

METODOLOGIYASI

Ilmiy adabiyotlarni o'rganib, tajribada shuni ko'rdikki, O'zbekiston Respublikasidagi bir nechta oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchi va talabalariga so'rovnomalar o'tkazildi. Ushbu metodda kommunikativ kompetentlikning bir nechta xil jihatlarini o'lchashga qaratilgan bo'lib, tadqiqot ishtirokchilari o'z-o'zini baholashlari asosida tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda o'qituvchilarning pedagogik jarayonlari va talabalar bilan birgalikdagi muloqoti o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari:

Kommunikativ kompetentlik bir nechta tadqiqotchilar tomonidan bir nechta qismlarga ajratilgan, biroq ko'pchilik olimlar uning uchta asosiy qismini aytadi. Lingvistik, sotsial-kommunikativ va psixologik.

1. Lingvistik kompetentlik

Lingvistik kompetentlik insonning tilni to'g'ri va ravon ishlatish qobiliyatini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, so'zning boyligi, grammatikaning

yaxshiligi, tilning fonetik, morfologik, sintaktik hamda ,semantik jihatlarini tushunish va ulardan to'g'ri foydalanishni o'z ichiga oladi. N. Chomsky (1965) o'zining "Aspects of the Theory of Syntax" asarida lingvistik kompetentlikni "tilning struktural jihatlariga nisbatan to'liq va mukammal bilim" sifatida ta'riflaydi.

2. Sotsial-kommunikativ kompetentlik

Sotsial-kommunikativ kompetentlik-bu insonning jamiyatda samarali muloqot qilish va har xil ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri keladigan muloqot usullarini tanlash qobiliyatidir. Bu insonning o'zaro aloqada bo'lishdagi etik qoidalarga rioya qilishini, empatiya va bir-birini tushunishni o'z ichiga oladi. Goffman (1959) "The Presentation of Self in Everyday Life" asarida kommunikativ kompetentlikni "shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda o'zini qanday taqdim etish, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni qanday boshqarish" sifatida belgilaydi.

3. Psixologik kompetentlik

Psixologik kompetentlik esa insonning o'z his-tuyg'ularini boshqarish hamda, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish layoqatidir. Bu komponent, shuningdek, hissiy intellekt (Goleman, 1995) tushunchasiga mosdir. Hissiy intellekt — bu o'z his-tuyg'ularini bilish, boshqalar bilan empatiya orqali aloqada bo'lish hamda, hissiy holatlarni boshqarish qobiliyatidir. Goleman (1995) o'z asarida "Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ" shunday deb yozadi: "Hissiy intellekt nafaqat o'z his-tuyg'ularini anglash, balki boshqalarning hissiy holatlarini tushunish va ularga mos ravishda reaksiya berishdir." Kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi insonning ta'limi, jamiyatda o'zaro aloqalari va hissiy qobiliyatini rivojlantirishga bog'liq. O'qituvchilar, pedagoglar va psixologlar kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga katta e'tibor qaratadilar. Pedagogikada bu hodisalarni samarali amalga oshirish uchun interaktiv metodlar va o'quv mashg'ulotlari, hamda, jamoaviy ishlash va muammoli vaziyatlar bilan ishlash kabi usullardan

foydalanadi. Shu bilan birgalikda, kommunikativ kompetentlik nafaqat o'qish paytida, balki ish joyida, ijtimoiy aloqalarda hamda kundalik hayotimizda ham muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki o'qituvchi va talabalarning 65% i kommunikativ kompetentlik bo'yicha o'zlarini o'rtacha baholashgan va o'qituvchilarning 70%i o'zlarining kommunikativ kompetentligini yaxshi emas deb hisoblashgan hamda, o'z ustida ushlashini takidlashgan. Bunda talabalar asosan interfaol metodlar va guruhli muhokamalar orqali o'zlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishgan.

XULOSA

Kommunikativ kompetentlik bugungi ilg'or jamiyatda insonning muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan muhim qobiliyat hisoblanadi. Bu faqat til va nutqiy ko'nikmalar emas, balki ijtimoiy va psixologik jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, insonning o'zini jamiyatda yaxshi va muvaffaqiyatli namoyon etishi uchun kerakdir. Kelajakda, bu sohada yanada ko'plab tadqiqotlar va metodologik yondashuvlar olib borilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Hymes, D. (1972). "On Communicative Competence".
- 2.Canale, M., & Swain, M. (1980). "Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing".
- 3.Bachman, L. F. (1990). "Fundamental Considerations in Language Testing".
- 4.Galskova, N. V. (1990). "Tilni o'rganishning kommunikativ metodlari". Bu tadqiqotda kommunikativ metodlar va ularni o'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali muloqot uchun qanday qo'llash haqida so'z yuritiladi.
- 5.Apresyan, Yu. D. (1994). "Kommunikativ kompetentlik: Til va nutqni turli vaziyatlarda to'g'ri va samarali ishlatish qobiliyati". Apresyan kommunikativ kompetentlikni aniq ta'riflab, bu sohada til va nutqni qanday samarali ishlatish zarurligini tushuntiradi.

6.Vengerov, A. V. (2000). "Kommunikativ kompetentlik: Pedagogik va psixologik aspektlar". Vengerov bu tadqiqotda kommunikativ kompetentlikni til va ijtimoiy bilimlar hamda qobiliyatlar majmuasi sifatida ta'riflaydi.

7.Ibragimov, R. Sh. (2007). "O'zbekistonda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish: O'qituvchilarni kommunikativ kompetentlikka yo'naltirish". Ibragimovning tadqiqotlari o'zbek tilini o'qitishda amaliy yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi, ayniqsa o'qituvchilarga kommunikativ kompetentlikni oshirishga qaratilgan.

8.Murodov, M. S. (2012). "Kommunikativ kompetentlik va tilni o'rgatishda innovatsion yondashuvlar". Murodov o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarini taklif qiladi va bu sohada innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

9.Xodjaeva, N. T. (2015). Bu tadqiqotda Xodjaeva kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish va uni tilni o'rgatishda amaliyotga tatbiq etishning samarali usullari haqida so'z yuritadi.